



Ma'naviyat-milliy yuksalish poydevori

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Shodiqulov Bekzod Normurod o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

shodiqulovbekzod516@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo'rlik, g'iybat, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'paruvchilik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng erkin fikrlaydigan, o'z-o'zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma'naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi.



Kalit so'zlar. Ma'naviyat, jamiyat, xalq, hokimyat, inson ongi, maqsad, inson manfaat, kelajak, maktab oliy ta'lim, mahalla, viloyat, ong.

Abstract: Problems existing in the economic, social and political spheres of society can be solved by developing spirituality and relying on it. Spirituality is considered an important factor that leads the nation to development and increases the power of the state. Because wherever, in any country, there is a high level of spirituality, in that place, in that country, there is ignorance, envy, carelessness, selfishness, laziness, pride, vanity, gossip, blindness, evil. , there is no room for negative vices, such as subversiveness, betrayal of one's country and people, slander, and manifestations of lack of spirituality. As a result of comprehensive reforms and creative works implemented in our country, our people's consciousness and worldview are changing. In our country, the importance of the life-giving idea "From national recovery to national rise" is increasing more and more in the establishment of a legal state and civil society. After our country gained its independence, the task of raising a free-thinking, self-aware person, who understands the goals and interests of society, mature and perfect in all aspects, was set as a priority direction of state policy. Its implementation requires, first of all, to enrich the internal spirituality of the students and to form an independent worldview.

Key words: Spirituality, society, people, government, human consciousness, purpose, human interest, future, school, higher education, neighborhood, region, consciousness.

Абстракт: Проблемы, существующие в экономической, социальной и политической сферах жизни общества, можно решить, развивая духовность и опираясь на нее. Духовность считается важным фактором, ведущим нацию к развитию и увеличивающим мощь государства. Потому что где бы, в любой стране, ни был высокий уровень духовности, там, в той стране, есть невежество, зависть, беспечность, эгоизм, лень, гордыня, тщеславие, сплетни, слепота, зло. за отрицательные пороки, такие как подстрекательство, предательство своей страны и



народа, клевета, проявления бездуховности. В результате комплексных реформ и созидательной работы, проводимых в нашей стране, меняются сознание и мировоззрение нашего народа. В нашей стране в процессе становления правового государства и гражданского общества все больше возрастает значение животворящей идеи «От национального подъема к национальному подъему». После обретения нашей страной независимости приоритетным направлением государственной политики была поставлена задача воспитания свободомыслящей, самосознательной, понимающей цели и интересы общества, зрелой и совершенной во всех аспектах личности. Ее реализация требует, прежде всего, обогащения внутренней духовности учащихся и формирования самостоятельного мировоззрения.

Ключевые слова. Духовность, общество, человек, власть, человеческое сознание, цель, человеческий интерес, будущее, школа, высшее образование, соседство, регион, сознание.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy-ruhiy omildir. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” hamda “Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish



to'g'risida"gi qarorlari madaniy hayotimiz ravnaqi, adabiy-badiiy tafakkur rivoji va yoshlar tarbiyasi samaradorligiga xizmat qiladi. Hayot sur'atining tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya iqtisodiy o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi. Chunki ayni shu sohada yuzaga kelayotgan muammolar boshqa sohalardagi muammolar yechimiga borib taqaladi. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki bu muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq. Ma'naviyat oqsasa ilmiy taraqqiyot to'g'ri yo'ldan chalg'ishi mumkin – bugun dunyoning favqulodda iste'dodli olimlari, tug'ma qobiliyat egalari sog'liqni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, inson maishiy turmushini yaxshilash muammolari bilan emas, zamonaviy qurol-yarog'lar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar. Taassufki, inson aql-zakovatining yuksak samarasi bo'lgan internet omborlari behayolik, zo'ravonlik, bosqinchi va talonchilik, zino va boshqa illatlar bilan to'lib-toshgan. Matbuot xabarlariga qaraganda, bu tizimda yoshlarni o'z-o'zini, boshqa gunohsiz odamlarni o'ldirishga o'rgatuvchi son-sanoqsiz saytlar bor ekan. Ma'naviyat bir chetga surib qo'yilsa, yangi boylar xayr-sahovat, muruvvat yo'lini qo'yib, hoyu havasga, tuturiqsiz xarajatlarga beriladilar, bema'ni urf-odatlarini o'ylab topadilar va shu ishlari bilan nom qozonadilar. Dunyo dunyo bo'lib, pul, boylik yuzaga kelganidan beri hech bir boyvachcha "Bo'ldi, mol-mulkim oshib-toshib ketdi, boshqalarga ham qolsin", degan emas. Ma'naviyatli kishi, agar uning atigi bir kunlik rizqidan boshqa hech vaqosi bo'lmasa ham, shukr qiladi, shu rizqni og'ziga solayotib, boshqalar to'g'risida ham o'ylaydi. Bundan anglashiladigan xulosa shuki, endilikda dunyoni kuch, boylik, qurol-yarog', do'q-po'pisa emas, imon-e'tiqod, fahm-farosat, aql-idrok, ta'lim-tarbiya bilan mujassamlashgan ma'naviyat qutqaradi. Koronavirus pandemiyasi inson hayotida kutilmaganda g'aroyib holatlar ham yuz berishi mumkinligini oshkor qildi. Ulardan biri – tojdor virus hamlasi payti hisobsiz boylikka ega kishilar ham bu ofatdan chetda qolmadilar. Xalqona aytganda, "Bir kaft bug'doy osh bo'ldi, tilla, kumush – tosh bo'ldi". Shu sababdan ham bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarni tahlil qilishda ularga, eng avvalo, ma'naviyat ko'zi bilan qarash, hayotimizga kirib kelayotgan,



turmush tarzimizga singdirilayotgan “qoida”lar kimga va nimaga qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o’rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid jihatlarni ochib berish, va, tabiiyki, zarur choralar ko’rish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi dunyoning o’ziga xos xususiyati shundaki, rivojlangan, iqtisodi baquvvat davlatlar ham, bu yo’lga endi-endi kirib kelayotgan mamlakatlar ham o’zaro hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yishda, o’zining shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi. Yirik davlatlar iqtisodi endi-endi oyoqqa turayotgan mamlakatlarga ma’lum ma’noda iqtisodiy, siyosiy va boshqa bosim ham o’tkazadi. Iqtisodiy tazyiqni sezish oson, ammo mafkuraviy tazyiq ko’rinmas bir ofat yanglig’ xalq, millat hayotiga pistirib kirib keladi va ildiz otadi. Iqtisodiy tanglikni yengish mumkin, ammo ma’naviy tanazzul oqibatlarini tugatish g’oyat murakkab vazifa. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo’liga o’tayotgan O’zbekiston uchun ma’naviy tarbiya bugun har qachongidan ko’ra ham ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbarining qarorida bu borada amalga oshirilishi lozim bo’lgan birlamchi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, olib borilayotgan keng ko’lamli tadbir-choralarga qaramasdan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samarasiga to’siq bo’layotgan tizimli muammolar saqlanib qolayotgani sabablari aniq-ravshan ko’rsatib berilgan. Chunonchi, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishini tashkil etishda yaxlit samarali, ta’sirchan tizim mavjud emas, milliy taraqqiyot bilan bevosita bog’liq bu jarayonga dahldor ilmiy-tadqiqot ishlari sust olib borilmoqda, hokimliklar, fuqarolik jamiyati va mahalla institutlari, xususi sektor hamda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hamkorligi yo’lga qo’yilmagan. Boz ustiga, hokimlik, vazirlik va boshqa rasmiy idoralarning ayrim rahbarlarida ma’naviyat masalalari bilan shug’ullanishga, OAV imkoniyatlaridan unumli foydalanishga, mavjud muamolarni birgalikda hal etishga xohishning o’zi yo’q. Ular matbuotni ortiqcha tashvish keltiradigan, kamchilik va nuqsonlarni oshkor qiladigan vosita deb tushunadilar va shu sababli gazeta-jurnal o’qimasliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar. Davlatimiz rahbarining qarorida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari sifatida, birinchi navbatda, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g’oyasini umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash vazifasi qo’yilgan. Bunda ma’naviy tarbiya bilan bog’liq



ishlar ma'lum hududlarda emas, butun mamlakatda yaxlit olib borilishi va hamma joyda talab darajasidagi samaraga erishilishi ko'zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, ma'naviy tarbiya bilan bog'liq targ'ibot-tashviqot ishlari qanday samara berayotgani bilan shug'ullanuvchi doimiy monitoring tizimi joriy etiladi. Muhim vazifalardan yana biri – el-yurt taqdiriga loqayd, ish uslubida mahalliychilikka, urug'-aymoqchilikka, tanish-bilishchilikka yo'l qo'yadigan rahbarlar bilan murosasiz bo'lish. Bu illatlar alohida bir mamlakatda bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Ular hamma joyda va hamma vaqt ijtimoiy adolatning buzilishiga, halollik va vijdoniylik ildizlarining sustlashishiga, oshkoralik qolib, imi-jimida ish bitirishga sabab bo'ladi. Shu bois, davlatimiz rahbarining yangi xalqchil siyosatida bunday nomaqbul holatlarga barham berish muhim o'rin tutadi. Qarorda madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam ravishda o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish vazifasi ham qo'yilgan. Toki shunday ekan, bu kurashni tashkil etishdagi nomutanosibliklar – bosma nashrlarning joylarga, ayniqsa, o'quv yurtlariga o'z vaqtida va izchil yetib borishini ta'minlash, buning uchun pochta xizmatlarining asossiz oshib borishiga yo'l qo'ymaslik, o'rta ta'lim maktablari kutubxonalarini ma'naviy-ma'rifiy nashrlar bilan doimiy ravishda to'ldirib borish talab etiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek, bunday jurnallarni o'qimagan yoshlarni ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash qiyin. Bunda jamoatchilikning e'tiborga molik taklif hamda fikr-mulohazalarini inobatga olish, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatishga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari deganda ma'naviy targ'ibot ishiga jalb etilgan voizlar ma'ruza matnini tayyorlashda har bir tuman, qishloq yoki chekka bir hududning jug'rofiy joylashuvi, etnik tarkibi, muammolari va boshqa jihatlarni hisobga olishi, ma'ruzani mahalliy fakt va raqamlar, ayni shu hududda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, davlat dasturlarida ko'zda tutilgan rejalar bilan boyitishi talab etiladi. Bu yo'nalishda "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi negizida Markaz



huzurida tashkil etiladigan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashabbuskor bo'lishi talab etiladi. Shu o'rinda ushbu vazifalarning bajarilishiga dahldor mutasaddilar e'tiborini bir holatga qaratib o'tmoqchiman. Bizda, yuqorida keltirib o'tilgan illatlarga qo'shimcha, yana bir g'aroyib illat ham bor. Boshqacha atash mumkin emas. azkur qarorlarga binoan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Ijod" jamoat fondi negizida **Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi tashkil etiladi.** Jamg'armaga **"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"** asosida **maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari uchun** metodik qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan **ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, milliy merosimiz, buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissalarini dunyo miqyosida targ'ib qilishga** qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, **adabiyot va kitobxonlikni har tomonlama rivojlantirish,** faol ijodkorlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklanadi. Bugun dunyoda iqtisodiy sohada – o'zga mintaqalardagi tabiiy boyliklar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, mafkuraviy sohada — turli xalqlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini o'z manfaatlari yo'lida "isloh" qilish, yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni to'g'ri yo'llardan chalg'itish kabi nosog'lom xatti-harakatlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday harakatlar bir qarashda ko'zga uncha tashlanmaydigan, deyarli beozor bo'lib ko'rinadigan va hatto qiziqarli, jozibali shakllarda olib boriladi. Moddiy manfaatdorlik va'da qilinadi. Hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday "joziba"ga tez mahliyo bo'ladilar va o'zlari bilmagan holda kimlarningdir to'riga ilinib qoladilar. Yoshlarni bunday halokatdan asrashda badiiy adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti xaloskor kuchga aylanadi. Ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va



madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiymadaniy rivojlanishisiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. „Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi“, degan edi O'zbekistonning ilk prezidenti Islom Karimov. Shu sababli O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviyatimiz „Avesto“ va zardushtiylik ta'limotidan boshlab hozirgi kungacha shakllanib, boyib, umuminsoniy qadriyatlar bilan yonma-yon rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etilgan. Respublika ta'lim tizimida „Ma'naviyat asoslari“ fani o'qitiladi. Ma'naviyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti. Ma'naviyat hodisasi asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati. Ma'naviyat ko'ngil ko'zgusidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Demak, ma'naviyatni tadqiq etish aslida Shaxs ma'naviyatini o'rganishdan boshlanmog'i zarurdek ko'rinadi. Darhaqiqat, har bir insonning



ma'naviy dunyosi o'ziga xos hududsiz bir olam. Ammo har bir inson muayyan bir jamiyatda, muayyan bir insonlar jamoasi ichida yashaydi, muayyan bir millatga mansub bo'ladi. Tabiiyki, har bir alohida inson o'sib-ulg'ayar ekan, unga atrofmuhitida yashayotgan insonlarning ta'siri bo'ladi. Insonning ma'naviy kamoloti ayni shu muhitning ta'siridan boshlanadi. Har bir shaxs, o'zi buni chuqur idrok qiladimi, yo'qmi, qat'i nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yo'q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson "o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi". Buning ma'nosi, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayru, undan tashqarida bo'lmaydi. Shunday ekan, millat ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs ma'naviyatini ham o'rganish imkondan tashqari. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan millat ma'naviyati, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuidan iborat bo'lsa-da, voqelikda har bir shaxs ma'naviyati millat ma'naviyatidan oziqlanadi, uning asosida kamol topadi. Milliy ma'naviyat nazariyasini yaratish uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qaerlardan qidirish kerakligi Prezident asarlarida avvalboshidanoq aniq ko'rsatib va qayta-qayta ta'kidlab kelinmoqda. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yipti, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug' an'ana – ulug' bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o'z muqaddas mulki deb tan olgan ma'naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy ma'naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va, birinchi navbatda, yosh avlod e'tiborini jalb etish maqsadini ko'zda tutadi. Islom Karimov xalq ma'naviyatini yuksaltirish deganda nimani ko'zda tutganligini hali mustaqillikka erishmasimizdan - 1990 yili O'zbekiston Prezidenti sifatidagi birinchi nutqidayoq ochiq-oydin bayon etgan bo'lib, ushbu ma'ruzada inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, "xazinalarga to'la



milliytarixiy an'analar bilan, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik" yaqin o'tmishimizda jamiyatimizga qanchalar zarar keltirganligi qayd etilib, bu sohada yangicha vazifalar olg'a surilgan edi: "Birinch navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish, Shaxs ma'naviyati – har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajasi. Bu uyg'unlik har bir shaxsning imoni, ilmi, mas'uliyati, mehri orqali namoyon bo'ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg'ularida ifodalanadi. www.ziyouz.com kutubxonasi so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak"

Xulosa. Vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqod va muhabbatning inomidir. Oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g'urur kabi g'oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o'zligini anglashga erishishdir. Har bir davrda yuz beradigan voqea –hodisalar bolalarga bevosita va bovosita ta'sir etadi. Bunday voqea – hodisalar to'g'risida tarbiyachining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" hamda "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari madaniy hayotimiz ravnaqi, adabiy-badiiy tafakkur rivoji va yoshlar tarbiyasi samaradorligiga xizmat qiladi. Hayot sur'atining tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya iqtisodiy o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, Islom. Istiqlol va ma'naviyat, Toshkent, 1994-yil.
2. Karimov, Islom. Ma'naviy yuksalish yo'lida, Toshkent, 1998-yil.
3. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari (tuzuvchilar: S. O. Ota-murodov va boshqa,) Toshkent, 1998-yil.
4. Imomnazarov ma'naviyat, Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar, Toshkent, 1998-yil.
5. Olim, Sultonmurod. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
6. G'ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). –T.: 2009.–106 b.
7. G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009
8. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.